



XORIJIY DAVLATLARNING AGRAR-SEKTOR EKSPORTIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR TAJRIBALARI

PhD, dots. **Ruzmetov Davron**

Urganch RANCH texnologiya universiteti

ORCID: 0009-0002-2301-8636

d.ruzmetov@utu-ranch.uz

Sabirova Hurriyat

Urganch RANCH texnologiya universiteti

ORCID: 0009-0009-6347-0230

hurriyat.sobirova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy davlatlar agrar sektorida eksport faoliyatini rivojlantirishda kichik biznes subyektlarining roli va ahamiyatini oshirishga qaratilgan ilg'or amaliyotlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqishda kichik ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan eksportga yo'naltirilgan siyosat hamda innovatsion boshqaruv yondashuvlarining samaradorligi, shuningdek, turli mamlakatlar tajribasi asosida kichik agrar biznesning eksport jarayonida uchraydigan muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari va raqobatbardoshlikni oshirish omillari qiyosiy tahlil qilinadi va agrar sohada eksport salohiyatini kengaytirish, kichik biznes ishtirokini faollashtirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan xulosalar taqdim qilinadi.

Kalit so'zlar: agrar sektor, kichik biznes, eksport faoliyati, eksportga yo'naltirilgan siyosat, barqaror rivojlanish, eksport infratuzilmasi.

ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА В ЭКСПОРТНОМ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОМ СЕКТОРЕ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

PhD, доц. **Рузметов Даврон**

Ургенчский технологический университет RANCH

Сабирова Хуррият

Ургенчский технологический университет RANCH

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ передового опыта в развитии экспортной деятельности в аграрном секторе зарубежных стран, повышения роли и значимости субъектов малого бизнеса, а также организационно-экономических механизмов, направленных на поддержку малых производителей при выводе сельскохозяйственной продукции на внешние рынки. Рассматривается эффективность государственной экспортной политики и инновационных управленческих подходов. Также, на основе опыта различных стран, анализируются проблемы, с которыми сталкивается малый аграрный бизнес в процессе экспорта, пути их решения и факторы повышения конкурентоспособности. В заключении представлены выводы о расширении экспортного потенциала аграрного сектора, активизации участия малого бизнеса и обеспечении устойчивого экономического развития.

Ключевые слова: аграрный сектор, малый бизнес, экспортная деятельность, экспортно-ориентированная политика, устойчивое развитие, экспортная инфраструктура.

ADVANCED EXPERIENCES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN THE AGRICULTURAL SECTOR EXPORT OF FOREIGN COUNTRIES

PhD, assoc. prof. **Ruzmetov Davron**
Urgench RANCH Technological University
Sabirova Hurriyat
Urgench RANCH Technological University

Abstract. *This article presents a comparative analysis of advanced practices aimed at enhancing the role and significance of small business entities in developing export activities in the agricultural sector of foreign countries. It also examines organizational and economic mechanisms supporting small producers in exporting agricultural products to foreign markets, as well as the effectiveness of export-oriented policies and innovative management approaches implemented by the government. Additionally, the article analyzes the problems faced by small agricultural businesses in the export process, based on the experience of different countries, and explores ways to address these challenges, along with factors contributing to increasing competitiveness. The conclusions focus on expanding export potential in the agricultural sector, activating small business participation, and ensuring sustainable economic development.*

Keywords: *agricultural sector, small business, export activities, export-oriented policy, sustainable development, export infrastructure.*

Kirish.

Agrar sektor jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, xalqaro savdoda salmoqli o'rin egallaydi. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining o'sishi nafaqat iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishni ta'minlaydi, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining agrar sektorda eksport faoliyatida faollashuvi ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda.

O'zbekistonda ham agrar sektorni rivojlantirish va kichik biznesni eksport faoliyatiga jalb etishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy tadqiqotlar mavjud. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish to'g'risida"gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4575-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi qarorida kichik biznes subyektlarini xalqaro bozorlarga chiqarishga qaratilgan huquqiy va tashkiliy mexanizmlar belgilab berilgan (Qonun, 2000; Qaror, 2020).

Kichik biznesning eksport faoliyatini rivojlantirish jarayonida tashkiliy, iqtisodiy hamda siyosiy mexanizmlarning mavjud bo'lishi zarur bo'lib, mazkur jarayonlarning samarali amalga oshirilishi uchun davlat siyosati, innovatsion boshqaruv yondashuvlari va ilg'or xalqaro tajribani o'rganish muhim hisoblanadi (Hojiqurbonov, 2021; Rahimov, 2025).

Xorijiy tajribalarga tayangan holda kichik biznesni rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Mazkur maqolada xorijiy davlatlarning agrar sektorida kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalari, ularning eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, davlat siyosatining roli hamda innovatsion boshqaruv yondashuvlarining samaradorligi tahlil qilinadi.

Shuningdek, kichik agrar biznesning eksport jarayonida uchraydigan muammolar va raqobatbardoshlikni oshirish omillari qiyosiy tahlil asosida yoritilib, olingan xulosalar amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Agrar sektor va kichik biznesni rivojlantirish, xususan kichik biznes subyektlarining agrar mahsulotlarni eksportga yo'naltirishdagi o'rni bugungi global iqtisodiy sharoitda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar kichik biznesning agrar sohadagi eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni o'rganishga bag'ishlangan.

Xususan, Martinez va boshqa olimlar kichik bizneslarning eksport jarayonida duch keladigan asosiy to'siqlar sifatida moliyaviy resurslar, texnologiyalar va bozor tanlashdagi muammolarni ko'rsatadilar. Ushbu cheklovlarni bartaraf etishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, malaka oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi (Momčilo, 2014).

Devesh Roy va Amit Thorat (2008) tadqiqotlarida kichik agrar bizneslarni eksportga chiqarishning muhim omillari sifatida kooperativ yondashuv, xalqaro talabga mos mahsulot ishlab chiqarish va bozor diversifikatsiyasini ko'rsatadi.

Guardiola, Hezarkhani, va Meca (2024) tadqiqotlarida Yevropa Ittifoqidagi agrar kooperativlar orqali kichik agrar biznes subyektlarining eksport imkoniyatlarini tahlil qilgan. Tadqiqotchilar kooperativ asosida birgalikda eksport qilishning muvaffaqiyatli modelini ko'rsatadi, xususan, eksport shartnomalarida minimal buyurtma miqdori (MOQ) talablari doirasida qanday natijalarga erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

Mahalliy olimlardan S.G. Akhmedov (2019) O'zbekiston agrar sektori eksportida kichik biznesni eksportga moslashtirish zarurligini asoslab bersa, Ruzmetov (2021) innovatsion yondashuvlarsiz agrar sohani rivojlantirish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Muhammadiev (2022) esa kichik biznesning eksport salohiyatini oshirishda davlatning moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilib, infratuzilma va logistika muammolarini asosiy to'siqlar sifatida ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili kichik agrar biznesning eksport salohiyatini oshirishda davlat qo'llab-quvvatlashi, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish, xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish hamda davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Agrar sektor eksportida kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni aniqlash hamda ularning samaradorligini baholash maqsadida kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez usullari orqali rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning agrar eksport siyosati hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tizimli ravishda o'rganildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil metodi asosida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va AQShda kichik agrar biznesning eksportdagi o'rni, davlat qo'llab-quvvatlash shakllari va institutsional mexanizmlar solishtirildi. Statistik tahlil usuli yordamida xalqaro tashkilotlar (FAO, World Bank, OECD) ma'lumotlari asosida agrar eksport hajmi va kichik biznes ishtiroki o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik baholandi. O'zbekiston agrar sektor eksportida kichik biznesning bugungi kundagi holatini tahlil qilishdan oldin rivojlangan bir qator mamlakatlarda agrar sektor eksportida kichik biznesning holatini tahlil qilib o'tishni joiz deb topdik.

Yevropa Ittifoqi tajribasi, Niderlandiya misolida:

Niderlandiya Yevropa Ittifoqida agrar mahsulotlar eksporti bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib, ushbu muvaffaqiyatda kichik va o'rta agrar biznes subyektlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat agrar eksport modelining asosiy xususiyatlari kooperatsiya, innovatsiya va logistika tizimlarining integratsiyalashuvi bilan tavsiflanadi

(2024). Niderlandiyada kichik fermer xo'jaliklari eksport bozorlariga asosan agrar kooperativlar orqali chiqadi. Ushbu kooperativlar mahsulotni qayta ishlash, sertifikatlash, qadoqlash hamda tashqi bozorlarga yetkazib berish kabi funksiyalarni amalga oshiradi. Natijada kichik biznes subyektlarining tranzaksiya xarajatlari kamayadi va ularning eksportdagi raqobatbardoshligi oshadi. 2024 yilda Niderlandiya agrar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 128,9 mlrd yevro qiymatida eksport qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023 yilga nisbatan 4,8 foizga oshgan. Eksport hajmining asosiy qismi 42,3 mlrd yevro mahalliy ishlab chiqarilgan agrar mahsulotlar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 5,2 mlrd yevro re-eksport orqali shakllangan. Niderlandiyaning asosiy eksport mahsulotlari tarkibi 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval

Niderlandiyaning 2024 yildagi asosiy eksport strukturasi.

№	Mahsulot guruhi	Eksport qiymati (2024, mlrd €)	Izoh
1	Sut mahsulotlari va tuxum	12,3	Eng yirik eksport guruhi
2	Bog'dorchilik mahsulotlari (meva/sabzavot)	11,9	Ikkinchi eng yirik guruh
3	Go'sht mahsulotlari	10,7	Chorva go'shti va qiyma mahsulotlar
4	Kakao va kakao tayyor mahsulotlari	9,9	Narx oshishi hisobiga to'rtinchi o'rin
5	Sabzavotlar (batamom)	8,9	Poliz ekinlari va sabzavotlar
6	Mevalar	8,6	Yangi meva eksporti
7	Qayta ishlangan meva/sabzavot	7,4	Konserva va qayta ishlangan mahsulotlar
8	Ichimliklar	7,3	Qahva, shirin ichimliklar va boshqa turli bo'laklar
9	Don mahsulotlari va tayyor nonga oid mahsulotlar	6,6	Don, un, non mahsulotlari
10	Tabiiy yog'lar va moylar	6,2	Yog' va moyli mahsulotlar

Manba: muallif ishlanmasi.

Niderlandiya agrar eksportining yetakchi tarmog'i -sut mahsulotlari, tuxum, meva va sabzavotlar bo'lib, ularning eksport qiymati asosiy eksportchilar uchun mustahkam asosni yaratadi.

Niderlandiyada kichik fermer xo'jaliklari eksport bozorlariga kooperativlar orqali chiqadi. Kooperativlar mahsulotni qayta ishlash, sertifikatlash, qadoqlash va tashqi bozorlarga yetkazib berish kabi funksiyalarni bajarar ekan, kichik biznes subyektlarining tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va eksport raqobatbardoshlikni oshiradi. Bu model innovatsiya, logistika tizimlarining integratsiyalashuvi va samarali kooperatsiya orqali agrar sektorni qo'llab-quvatlaydi. 2024 yilda eksporte ko'rsatkichlarining yuqori darajada bo'lishi, ichki ishlab chiqarish va tashqi bozorlarga keng yo'nalishlar orqali barqaror o'sishni ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Niderlandiyaning agrar eksport modelining asosiy muvaffaqiyati kichik tadbirkorlik subyektlarining kooperativlar orqali bozorga chiqishi va kooperativlar tomonidan mahsulotlarni qayta ishlash, sertifikatlash va tashish funksiyalarining integratsiyasi bilan bog'liq. Bu yondashuv mahsulot sifatini kafolatlab, eksport xarajatlarini kamaytiradi, bozorlarni kengaytiradi va yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Sut mahsulotlari, tuxum, meva-sabzavotlar kabi guruhlar esa umumiy eksportning yo'l boshchisidir va mamlakatning agrar eksportining asosiy poydevorini tashkil etadi.

AQSH tajribasi:

AQSH agrar sektor eksportida kichik biznes subyektlarini rivojlantirish institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Xususan, AQSH Qishloq xo'jaligi vazirligi (USDA) huzuridagi Small Business Innovation Research (SBIR) va Market Access

Program (MAP) dasturlari kichik agrar tadbirkorlikni eksportga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi.

AQSH tajribasining muhim jihati shundaki, kichik fermer va agrar kompaniyalar eksport jarayonida axborot, moliyaviy va marketing qo'llab-quvvatlashdan foydalanadi. Davlat eksport risklarini sug'urtalash, xorijiy bozorlarda reklama va brending xarajatlarini qisman qoplash orqali kichik biznesni rag'batlantiradi. Natijada AQSHda kichik agrar biznes subyektlari asosan organik mahsulotlar, maxsus qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chuqur qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari eksportida faol ishtirok etmoqda. Bu esa kichik biznesning eksportdagi ulushini nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham oshirishga xizmat qilmoqda (2025).

2024 yilda AQSH agrar eksporti 176 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2023 yildan taxminan 1% yuqori bo'lib, rekord darajada bo'lgan. Eng katta eksport tarmoqlari soya (24,6 mlrd.) va makkajo'xori (13,9mlrd) va *makkajo'xori* (13,9 mlrd.) bo'lib, bu ikki mahsulot kichik biznes uchun barqaror daromad manbaini yaratadi. Bundan tashqari, yong'oqlar, qatiq mahsulotlari, soya unlari va tayyor oziq-ovqat kabi segmentlar ham kichik biznes uchun eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu moslashuvchanlik kichik tadbirkorlik subyektlariga chem tashqariga chiqish va globallashgan bozorlar uchun mos mahsulotlar ishlab chiqarishni o'rgatadi.

2-jadval

AQSHning 2024 yildagi asosiy agrar eksport mahsulotlari

No	Mahsulot guruhi	Eksport qiymati (2024, \$ mlrd)
1	Soybeans (soya fasoli)	24.6
2	Corn (makkajo'xori)	13.9
3	Beef & Beef Products (mol go'shti va mahsulotlari)	10.5
4	Tree Nuts (yong'oqlar)	9.8
5	Pork & Pork Products (cho'chqa go'shti)	8.6
6	Dairy Products (sut mahsulotlari)	8.2
7	Soybean Meal (soya unining mahsulotlari)	6.4
8	Food Preparations (tayyor oziq-ovqat)	6.3
9	Wheat (bug'doy)	5.9
10	Poultry Products (tovuq go'shti va mahsulotlar)	5.5

Manba: muallif ishlanmasi.

AQSH tajribasida kichik biznes subyektlarining agrar eksportidagi ulushi muhim o'rin tutadi, ammo yondashuv asosan institutsional qo'llab-quvvatlash va risklarni boshqarish mexanizmlariga tayanadi. USDA ning Small Business Innovation Research (SBIR) va Market Access Program (MAP) kabi dasturlari kichik agrar tadbirkorlikni eksport bozoriga bosqichma-bosqich yo'naltiradi. Bu dasturlar orqali kichik kompaniyalar axborot, moliyaviy va marketing qo'llab-quvvatlashlarga erishadi, eksport jarayonini soddalashtiradi va bozorlarga kirishni rag'batlantiradi. Shuningdek, davlat eksport xavflarini sug'urtalash, xorijiy bozorlarda brending va reklama xarajatlarini qisman qoplash orqali kichik tadbirkorlik uchun xavf-tushkunliklarni kamaytiradi. Natijada kichik fermerlar va agrar kompaniyalar eksporta ko'proq jalb qilinadi va ular raqobatbardoshlikni sifat jihatdan ham oshiradi, bozor talablari bo'yicha mos mahsulotlar, yuqori sifatli qadoqlash va mos sertifikatlar axborot oqimini yaxshilaydi.

Qisqa xulosa qilib aytganda, AQSH tajribasi kichik biznes ulushini faqat hajmlar bilan emas, balki sifat va bozorlarga mos mahsulotlar yaratish bo'yicha ham mustahkamlashni ko'rsatadi. Institutsional qo'llab-quvvatlash, eksport risklarini qisqa muddatda kamaytirish va marketing hamda brending xarajatlarini qisman qoplash orqali kichik agrar subyektlarining eksportdagi ishtiroki mustahkamlanadi. Soya va makkajo'xori kabi yetakchi mahsulotlar esa kichik bizneslarning barqaror daromad manbalari bo'lib, AQSHning 2024 yildagi rekord eksportini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Agrar Eksporti:

2024 yilda O'zbekiston agrar mahsulotlari eksport hajmi va sifati sezilarli darajada o'sgan. Jumladan, 2024-yil yanvar-iyul oylarida 1214,9 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,1 % yoki 91,3 ming tonnaga ko'paygan (O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi, 2024).

2024- yil yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 792,3 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 17,7 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (43,4 %), Pokiston (15,3 %), Qozog'iston (15,3 %), hamda Afg'oniston (5,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

4-jadval

O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlari eksporti (2024-yil yanvar-iyul, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

№	Mahsulot guruhi	Eksport qiymati (2024, \$ mln)	Mahsulot miqdori (ming tonna)
1	Uzum	18,3	15,5
2	Karam	42,2	160,8
3	Piyoz	58,3	298,7
4	Gilos va olcha	73,5	34,5
5	Qurtilgan uzum	25,1	17,0
6	O'rik	61,7	64,1
7	Loviya	117,0	28,5
8	Qurtilgan olxo'ri	16,7	11,5
9	Tariq	23,8	9,7
10	Bodring	3,8	5,1
11	Yeryong'oq	6,5	4,9
12	Qalampir	5,2	3,7

Manba: Statistika agentligi joriy ma'lumotlari (2024).

2024-yilning yanvar-iyul oylarida O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavot mahsulotlari eksport hajmi hamda uning qiymat ko'rsatkichlarining oshishi agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashning samarali ekanidan dalolat beradi. Eksport tarkibida o'rik, loviya, gilos, yeryong'oq kabi mahsulotlarning ulushi va o'sish sur'atlarining yuqoriligi mazkur mahsulotlarning tashqi bozorda raqobatbardoshligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, erishilgan natijalar agrar eksport salohiyatini yanada kengaytirish, logistika va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish orqali tashqi savdoda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini ko'paytirish muhimligini asoslaydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlar tajribasida agrar sektor eksportida kichik biznesni rivojlantirish O'zbekiston uchun dolzarb bo'lib, ilmiy asoslangan choralarni talab etadi. Niderlandiya, AQSH va Janubiy Koreya tajribasi asosida kichik va o'rta biznesning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlar ishlab chiqish mumkin.

Kooperativlar va klasterlar kichik bizneslarni eksport bozorlariga integratsiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi, innovatsion va raqamli texnologiyalar mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi, eksport marketingi va brendlash esa xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli ilgari surishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlatning moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlashi kichik agrar biznesning eksportdagi rolini mustahkamlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy xaridorlari bo'lgan davlatlar bozor xavfsizligini, sertifikatlash tizimini va sifatlari qadoqlashni talab qiladi. Kooperativlar va klasterlar orqali

kichik fermer xo'jaliklari eksport bozorlariga integratsiyalashishi, mahsulot sifatini ta'minlash va logistika xavflarini kamaytirish bo'yicha imkoni kengayadi. Innovatsiya va raqamli texnologiyalar yordamida mahsulotlar ko'rish, kataloglash, mahsulot xavfsizligini tasdiqlash va xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlash mumkin. Bu esa kichik bizneslarning qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishini rag'batlantiradi.

Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, huquqiy himoyalar va raqobatbardoshlikni oshirish uchun marketing, brendlash ham keng joriy etilmoqda. Ilmiy-ijodiy bazani kengaytirish va xalqaro bozorlarga chiqish uchun mos strategiyalar ishlab chiqilishi lozim. Xulosa qilib aytsam, O'zbekistonda kichik biznesning eksportdagi roli nafaqat hajmiy ko'rsatkichlarda, balki mahsulot sifatini yuqori darajaga olib chiqish, yangi bozorlarga chiqish va milliardlab export potentsialini amalga oshirish nuqtai nazaridan ham yetakchi bo'lishi mumkin. Kooperativlar, klasterlar, raqamli texnologiyalar va davlat qo'llab-quvvatlashi – eksport salohiyatini kengaytiradigan asosiy omillardir.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish va kichik biznesni global bozorlarga barqaror olib chiqish kompleks va izchil choralar orqali amalga oshiriladi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish mahsulдорlikni oshiradi, sifat standartlarini joriy qilish raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi, samarali brendlash esa milliy mahsulotlarning xalqaro bozordagi tan olinuvchanligini kuchaytiradi. Kooperativlar va klasterlar faoliyatini kengaytirish kichik fermerlarning bozorga chiqish xarajatlarini qisqartiradi, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish esa yetkazib berish zanjirlarining uzluksizligini ta'minlaydi.

Xorijiy davlatlarning agrar eksportidagi kichik biznes subyektlarining roli bo'yicha tahlil qilingan ilg'or tajribalar O'zbekistonda kichik biznes eksportini rivojlantirish uchun aniq yo'nalishlar beradi. Mahsulotlarimizning sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va bozorlarga chiqishni tezlashtirish uchun kooperatsiya, klasterlar, innovatsion boshqaruv va raqamli texnologiyalarni joriy etish zarur. Niderlandiya modeli kooperativlar orqali kichik fermer xo'jaliklarining bozorga chiqishini quvvatlaydi: qayta ishlash, sertifikatlash, qadoqlash va tashish funksiyalari ularning tranzaksiya xarajatlarini pasaytiradi va eksportga mos mahsulot yaratadi. AQSH tajribasida SBA va MAP kabi dasturlar kichik tadbirkorlikni global bozorga yo'naltiradi, eksport risklarini sug'urtalash va marketing xarajatlarini qisman qoplaydi; bu esa sifatli mahsulotlar, barqaror brendlar va kengroq bozorlarga chiqishni ta'minlaydi. Janubiy Koreya esa davlat-sanoat hamkorligi orqali logistika infratuzilmasini modernlashtirib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshiradi.

O'zbekistonda eng samarali yo'llari kooperativlar, klasterlar va raqamli ekotizimlarni yaratishdan boshlanadi. Mahsulotlar assortimenti va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish muhim: o'rik, loviya, yeryong'oq, mevalar, sabzavotlar kabi yo'nalishlar tashqi bozorlarda yuqori talabga ega. Davlat qo'llab-quvvatlashi: moliyaviy grantlar, eksport kreditlari, eksport marketingiga ajratilgan byudjet, sifat sertifikatlashtirish va xavfsiz qadoqlash standartlarini joriy etish zarur. Shuningdek, raqamli savdo platformalari, mahsulotlar katalogi, logistik tarmoqlarni optimallashtirish orqali kichik ishlab chiqaruvchilar bozorning xavf-xatarlarini kamaytiradi. Xulosaga ko'ra, O'zbekistonda kichik biznes eksportini rivojlantirish uchun samarali hamkorlik, innovatsiyaga asoslangan boshqaruv yondashuvi, va davlat tomonidan ko'rsatiladigan barqaror moliyaviy hamda huquqiy qo'llab-quvvatlash hal qiluvchi omil hisoblanadi va quyidagi 5ta taklif ishlab chiqildi:

1. Kooperativlar va klasterlar yaratish. Yangi kooperativlar orqali kichik fermerlar va ishlab chiqaruvchilar global bozorga moslashtiriladi, xarajatlar kamayadi va eksport imkoniyatlari kengayadi.

2. Innovatsion texnologiyalar va raqamli platformalarni joriy etish. Ushbu platformalar mahsulotlarni qadoqlash, logistika va marketing jarayonlarini optimallashtirishga, shuningdek, kichik biznesning keng bozorlarga chiqishiga xizmat qiladi.

3. Brendlash va marketing strategiyalarini kuchaytirish. Samarali marketing va brendlash eksport hajmini oshirishga yordam beradi.

4. Davlat qo'llab-quvvatlashini kuchaytirish. Moliyaviy va huquqiy yordam bizneslarning yangi bozorlarga muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi.

5. Ekologik va barqaror qishloq xo'jaligi metodlarini joriy etish. Ekologik toza mahsulotlar va barqaror tizimlar eksport talablariga javob beradi va eksport hajmini oshiradi.

Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi institutsional hamkorlikni kuchaytirish, eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarni soddalashtirish hamda maxsus iqtisodiy zonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish eksport salohiyatini yanada oshiradi. Amaliy taklif sifatida, hududlar kesimida "eksportni rivojlantirish markazlari"ni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lib, ular sertifikatlash, marketing, logistika va savdo muzokaralari bo'yicha yagona xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yadi. Natijada, agrar mahsulotlar eksporti tizimli ravishda kengayadi, iqtisodiy o'sish jadallashadi va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Adabiyotlar / Ўмепамыпа / Reference:

Branko Momčilo Marković. (2014). *The Role of Innovation in Enhancing Organizational Competitiveness*. 16(4): 139-154.

https://www.researchgate.net/publication/338286478_The_role_of_innovation_in_enhancing_organizational_competitiveness.

Guardiola, L. A., Hezarkhani, B., & Meca, A. (2024). *Cooperative Agri-Food Export under Minimum Quantity Commitments*. arXiv:2403.11633 [econ.RC]. <https://arxiv.org/abs/2403.11633> ([arXiv](https://arxiv.org/abs/2403.11633)).

Hojiqurbonov Q.T. (2021). O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznesni sohalarini iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish borasidagi ustuvor vazifalar. 28-mart, 2025-yil. <https://phoenixpublication.net/index.php/TANQ/article/view/2966/2527>.

Niderlandiyadaning 2024 yildagi asosiy eksport strukturasi (2024) <https://www.cbs.nl/en-gb/news/2025/03/value-of-agricultural-exports-up-by-nearly-5-percent-in-2024>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi (2024) O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi ma'lumotlari https://stat.uz/img/press_reliz_tashi_savdo_uzb_yanvar-iyun_2024_p89652.pdf.

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4575-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 28-yanvar, <https://lex.uz/docs/-4714632>.

Qonun (2000) O'zbekiston Respublikasi. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun. Toshkent, 26-may, 77-II-son. <https://www.lex.uz/ru/docs/-67345?ONDATE=15.12.2005%2000>.

Rahimov.O'. M. (2025). Qishloq xo'jalik mahsulotlari eksport salohiyatini rivojlantirishda davlat qo'llab quvvatlashining roli. "Environmental protection and scientific foundations of the "green" economy" *Jurnali*. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0083/83_i_20250415_123603_1.176.pdf.

Roy, D., & Thorat, A. (2008). *Success in High Value Horticultural Export Markets for the Small Farmers: The Case of Mahagrapes in India*. *World Development*, 36(8), 1447-1462. <https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2007.09.009> ([ResearchGate](https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2007.09.009)).

Ruzmetov D.I. (2021) O'zbekistonda agrar sektor tarkibi va rivojlanish tamoillari "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalari" ilmiy elektron jurnali. №6, noyabr-dekabr, https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/20_Ruzmetov_0.pdf.

U.S. (2025) *Agricultural Exports Close 2024 on a Strong Note* February 26, <https://www.fas.usda.gov/data/trade-spotlight-us-agricultural-exports-close-2024-on-strong-note>.